# V. KORXONA VA TASHKILOTLARNING MOLIYAVIY NATIJALARI [1)]

Foyda. Hisobot ma’lumotlariga ko‘ra, 2023- yilning yanvar- noyabr oylarida iqtisodiyot tarmoqlarida korxona va tashkilotlar tomonidan 30 398 599,5 mln. so‘m miqdorda yakuniy moliyaviy natija olindi.

2022-yilning yanvar-noyabr oylari bilan solishtirilganda, foyda hajmi 28 033 838,7 mln. so‘m yoki 9,2 foizga oshdi.

2023- yilning yanvar- noyabr oylarida faoliyat turlari bo‘yicha yakuniy moliyaviy natija 30 398 599,5 mln. so‘mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-noyabriga nisbatan 9,2 foizga oshdi

**2023- yil yanvar-noyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yakuniy moliyaviy natijalari**

mln. so‘m

| | *Foyda, zarar (+, -)* | *O‘sish sur‘ati, % da* |
|---|---|---|
| **Jami** | **30 398 599,5** | **108,4** |
| Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash | 3 097 854,3 | 134,3 |
| Ishlab chiqaradigan sanoat | 27 294 616,1 | 109,6 |
| Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash | -43 708,1 | - |
| Qurilish | 6 112,0 | 184,7 |
| Savdo | 30 302,5 | 2,7 m. |
| Tashish va saqlash | 1 694,1 | 136,3 |
| Suv bilan ta‘minlanish; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish | 1 984,2 | 117,4 |
| Ko‘chmas mulk bilan operatsiyalar | 649,6 | 65,0 |
| Professional, ilmiy va texnik faoliyat | 49,5 | 128,8 |
| Boshqarish bo‘yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko‘rsatish | 55,6 | 56,7 |
| Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 17,0 | 60,3 |
| Davlat boshqaruvi va mudofaa; majburiy ijtimoiy ta’minot | -1,7 | - |
| Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish | 8 974,4 | 100,1 |

Ijobiy moliyaviy natija (foyda)ning asosiy qismi ishlab chiqaradigan sanoat korxonalariga – 27 294 616,1 mln. so‘mga, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalariga – 3 097 854,3 mln. so‘mga, savdo korxonalariga– 30 302,5 mln. so‘mga, suv bilan ta‘minlanish;

[1)] *Byudjet va boshqa notijorat tashkilotlar, mahsulot ishlab chiqaruvchi qishloq xo‘jalik korxonalari, fermer va dehqon xo‘jaliklari, sug‘urta tashkilotlari, banklar, kichik korxonalar va mikrofirmalarsiz.*

kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalariga– 1 984,2 mln. so‘mga, tashish va saqlash – 1 694,1 mln. so‘mga, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish korxonalariga – 8 974,4 mln. so‘mga, qurilish korxonalariga – 6 112,0 mln. so‘mga, ko‘chmas mulk bilan operatsiyalar korxonalariga – 649,6 mln. so‘mga, boshqarish bo‘yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko‘rsatish korxonalariga – 55,6 mln. so‘mga, professional, ilmiy va texnik faoliyat korxonalariga – 49,5 mln. so‘mga, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish korxonalariga – 17,0 mln. so‘mga to‘g‘ri keladi.

Salbiy moliyaviy natija (zarar)ning asosiy qismi elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash korxonalariga minus - 43 708,1 mln. so‘m, davlat boshqaruvi va mudofaa; majburiy ijtimoiy ta’minot korxonalariga minus – 1,7 mln. so‘mga to‘g‘ri keladi.

2023-yilning yanvar- noyabr oylarini o‘tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirganimizda, foydaning asosiy o‘sishi “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi (535 870,9 mln. so‘m), O‘zbekiston Respublikasi “Tog‘-kon sanoati va geologiya” vazirligi (29 359 756,8 mln. so‘m), O‘zbekiston “to‘qimachilik va tikuv-trikotaj” sanoati korxonalari uyushmasi (20832,8 mln. so‘m) ga kiruvchi korxonalarga to‘g‘ri keldi.

**2023- yil yanvar-noyabr oylarida foydaning o‘sish sur‘ati yuqori bo‘lgan vazirlik va idoralar**

| | ***Foyda, zarar (+,-), mln. so‘m*** | ***O‘sish sur‘ati, % da*** |
|---|---|---|
| “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi | 535 870,9 | 149,3 |
| O‘zbekiston Respublikasi “Tog‘-kon sanoati va geologiya” vazirligi | 29 359 756,8 | 118,3 |

Foydaning pasayishi O‘zbekiston Respublikasi “ Davlat aktivlarini boshqarish ” agentligi –

4 523,1 mln. so‘m, “O‘zdonmahsulot” aksiyadorlik kompaniyasi – 393,9 mln. so‘m kabi yuqoridagi vazirlik va idoralar tarkibiga kiruvchi korxonalarda kuzatilgan.

## 2023- yil yanvar- noyabr oylarida foydaning pasayishi yuqori bo‘lgan vazirlik va idoralar

| | *Foyda, zarar (+,-), mln. so‘m* | *O‘sish sur‘ati, % da* |
|---|---|---|
| O‘zbekiston Respublikasi “ Davlat aktivlarini boshqarish ” agentligi | 4 523,1 | 0,6 |
| “O‘zdonmahsulot” aksiyadorlik kompaniyasi | 393,9 | 3,1 |

## 2023-yil yanvar- noyabr oylarida hududlar kesimida yakuniy moliyaviy natijalari

| | *Foyda, zarar (+, -) mln. so‘m* | *O‘sish sur‘ati, % da* |
|---|---|---|
| **Jami** | **30 398 599,5** | **108,4** |
| Navoiy sh. | 30 010 018,3 | 113,2 |
| Zarafshon sh. | -7 935,5 | - |
| G‘ozg‘on sh. | - | - |
| Karmana t. | 297 102,9 | 21,5 |
| Konimex t. | -29 920,8 | - |
| Qiziltepa t. | 15 189,6 | 123,7 |
| Navbahor t. | 23 326,8 | 85,3 |
| Nurota t. | 20 628,0 | 104,5 |
| Tomdi t. | 31 217,9 | - |
| Uchquduq t. | 5,6 | 12,1 m. |
| Xatirchi t. | 38 966,7 | 97,6 |

**2023- yil yanvar- noyabr oylarida hududlar kesimida yakuniy moliyaviy natijalari**
(2022- yil yanvar- noyabrga nisbatan, % da)




Hududlar kesimida foydaning asosiy qismi Navoiy shaharda 30 010 018,3 mln. so‘m, Karmana tumanida 297 102,9 mln. so‘m, Xatirchi tumanida 38 966,7 mln. so‘m, Tomdi tumanida 31 217,9 mln.so‘mga to‘g‘ri keladi. Zarar 2023- yilning yanvar- noyabr oylarida 10 ta korxona 89 876,7 mln. so‘m zarar bilan faoliyatini yakunladi.

Zararning asosiy qismi O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi huzuridagi Farmatsevtika tarmog‘ini rivojlantirish agentligi tarkibidagi korxonalar hissasiga to‘g‘ri keldi

**2023- yil yanvar- noyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari**

**bo‘yicha zarar ko‘rgan korxona va tashkilotlarning moliyaviy natijalari**

| | *Korxonalar soni* | *Zarar so‘mmasi* | |
|---|---|---|---|
| | | *mln. so‘m* | *jamiga nisbatan, % da* |
| **Jami** | **10** | **89 876,7** | **100,0** |
| Ishlab chiqaradigan sanoat | 3 | 32 066,0 | 35,7 |
| Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni Kondisiyalash | 1 | 48 231,3 | 53,7 |
| Davlat boshqaruvi va mudofaa; majburiy ijtimoiy ta’minot | 1 | 1,8 | - |
| Sog‘liqni saqlash sohasidagi faoliyat | 1 | 830,5 | 0,9 |
| Tashish va saqlash | 1 | 8,0 | - |
| savdo | 2 | 8 735,6 | 9,7 |
| Boshqa turdagi xizmatlar ko‘rsati | 1 | 3,5 | |

## 2023- yil yanvar- noyabr oylarida hududlar kesimida zarar ko‘rgan korxona va tashkilotlarning moliyaviy natijalari

| | *Korxonalar soni* | *Zarar ko‘rgan korxonalarning ulushi, % da* | *Zarar so‘mmasi, mln. so‘m* |
|---|---|---|---|
| **Jami** | **10** | **100,0** | **89 876,7** |
| Navoiy shahar | 2 | 54,9 | 49 341,3 |
| Zarafshon shahar | 3 | 9,7 | 8 743,7 |
| Qiziltepa tuman | 1 | 0,5 | 456,0 |
| Karmana tumani | 2 | 1,0 | 832,2 |
| Konimex tumani | 1 | 33,9 | 30 500 |
| Nurota tumani | 1 | - | 3,5 |

## Korxona va tashkilotlarning debitorlik va kreditorlik qarzdorligi holati[1)]




2023 – yil 1-dekabr holatiga debitor qarzdorlikning umumiy hajmi 12 903 284,0 mln. so‘mni tashkil qildi, shundan muddati o‘tgan – 137 140,4 mln. so‘m yoki jami qarzdorlikning 1,1 foizi.

Muddati o‘tgan debitor qarzdorlik 2022- yil 1- dekabrga nisbatan solishtirganimizda 90,6 foizga kamaygan bo‘lsa, jami debitor qarzdorlik o‘tgan yilga nisbatan 12,9 foizga oshgan.

Hududlar bo‘yicha ko‘rilganda debitor qarzdorligi yuqori Navoiy shahar 8 103 861,5 mln. so‘m (viloyat bo‘yicha jami debitor qarzdorlikning 62,8 %), Karmana tumani 4 462 556,4 mln. so‘m (34,6 %), Navbahor tumani 130 670,9 mln. so‘m (1,0 %), Xatirchi tumani 110 672,8 mln. so‘m (1,0 %), Konimex tumani 51 639,9 mln. so‘m (0,4 %) to‘g‘ri keldi.

[1)] *Byudjet va boshqa notijorat tashkilotlar, mahsulot ishlab chiqaruvchi qishloq xo‘jalik korxonalari, fermer va dehqon xo‘jaliklari, sug‘urta tashkilotlari, banklar, kichik korxonalar va mikrofirmalarsiz.*

Bunga qarama-qarshi debitor qarzdorlik  Tomdi tumani 12 772,2 mln. so‘m (0,1 %), Nurota tumani 12 105,4 mln. so‘m (0,1 foiz), Qiziltepa tumani 15 864,9 mln. so‘m (0,1 %), Zarafshon shahri 3139,7 mln. so‘m (0,02 %) ga pastligini ko‘rish mumkin.

**2023- yil 1- dekabr holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha muddati o‘tgan debitor qarzdorlikning tarkibi**

| | *Jami, mln.so‘m* | *undan:* | | | *Muddati o‘tgan qarzdor-likning ulushi, % da* |
|---|---|---|---|---|---|
| | | *xaridor va buyurtma-chilar* | *etkazib beruvchilarga va pudratchilarga berilgan avanslar* | *ichki idoraviy* | |
| **Jami** | **137 140,4** | **136 432,4** | **639,0** | | **100,0** |
| Ishlab chiqaradigan sanoat | 114 754,1 | 114 082,6 | 602,6 | - | 83,6 |
| Tashish va saqlash | 3 504,4 | 3 467,9 | 36,4 | - | 13,8 |
| Ko‘chmas mulk bilan opyerasiyalar | 18 881,9 | 18 881,9 | - | - | 2,6 |

Monitoring qilinadigan xo‘jalik birlashmalarining 2023- yil 1- dekabr holatiga jami debitor qarzdorligi  7 787 496,8 mln. so‘m yoki viloyat bo‘yicha jami qarzdorlikning 64,4 foizini tashkil qildi.

Muddati o‘tgan debitor qarzdorlikni 2022-yil 1- dekabrga nisbatan solishtirganimizda 90,6  foizga kamaygan.

2023- yil 1- dekabr holatiga kreditor qarzdorlikning umumiy hajmi 8 145 525,2  mln. so‘m, shundan muddati o‘tgan – 688 789,0  mln. so‘m yoki jami kreditor qarzdorlikning 8,5 foizni tashkil etdi.

Monitoring qilinadigan xo‘jalik birlashmalarining 2023- yil 1- dekabr holatiga jami kreditor qarzdorligi 6 117 996,7 mln. so‘m yoki viloyat bo‘yicha jami qarzdorlikning 75,1 foizni tashkil qildi, shu jumladan muddati o‘tgan – 673 699,0 mln. so‘m yoki mos ravishda 12,9 martaga oshgan.

## 2023- yil 1- dekabr holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha muddati o‘tgan kreditor qarzdorlikning tarkibi

| | *Jami, mln. so‘m* | *undan:* | | | | | *Muddati o‘tgan qarzdorlik-ning ulushi, % da* |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | *etkazib beruvchilar va pudrat-chilarga* | *olingan avanslar* | *davlat maqsadli fondlariga to‘lovlar* | *ichki idoraviy* | *mehnatga haq to‘lash* | |
| **Jami** | **688 789,0** | **686 651,6** | **2 137,4** | **-** | **-** | **-** | **100,0** |
| Ishlab chiqaradigan sanoat | 685 056,2 | 682 918,8 | 2 137,4 | - | - | - | 99,5 |
| Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash | - | - | - | - | - | - | - |
| Tashish va saqlash | - | - | - | - | - | - | - |
| Ko‘chmas mulk bilan operatsiyalar | 3 732,8 | 3 732,8 | - | - | - | - | 0,5 |
| Suv bilan ta‘minlash; kanalizasiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizasiya qilish | - | - | - | - | - | - | - |

2023- yil 1- dekabr holatiga jami kreditor qarzdorlikning debitorlikdan kamayishi 4 757 758,8 mln. so‘mni tashkil qildi.

Hududlar bo‘yicha ko‘rilganda kreditor qarzdorlik kamayishi Karmana tumani 3 280 988,6 mln. so‘m (26,5 %) Navoiy shahar 1 537 131,1 mln. so‘m (81,0 %) Konimex tumani-7739,5 mln. so‘m (85,0%) Nurota tumani 4472,2 mln. so‘m (63,1%) ga to‘g‘ri keldi.